



"TASDIQLAYMAN"

Asaka tuman kasb-xunarga

o'qitish markazi direktori

A.Abdurazaqov

09 2022 yil

## Asaka kasb-xunarga o'qitish markazining navbatdan tashqari umumiy yig'ilish

BAYONI № 8

Asaka tuman

23.09.2022 yil.

Yig'ilish raisi : A Abdurazaqov

Qatnashdilar: Markazning barcha xodimlari

### KUN TARTIBI :

**Asaka tuman kasb-xunarga o'qitish markazi xodimlari faoliyatidagi kamchiliklar shaxsiy manfaatlarni o'ylab Korruptsiyaga yo'l qo'ymaslik borasida oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va korruptsiyani oldini olish to'g'risida.**

**(A Abdurazaqov, A Odilov, A Saloxiddinov, A Abdurazaqov)**

Yig'ilish kun tartibidagi masalasi yuzasidan markaz direktori A.Abdurazaqov so'z olib, Korruptsiya iqtisodiyotning xavf-xatari manbai bo'lib, ayniqsa mamlakatda pul oqimini izdan chiqaradi. Ma'lumki, iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik davlat byudjetining defitsitsiz bo'lishini taqozo etadi. Korruptsiya yo'li bilan topilgan daromad ochiq ishlatilmaydi. Korruptsionerlar harom yo'l bilan topilgan noqonuniy daromadlarini javohirotda aylantiradi yoki bo'lmasa o'z sohibi ishlab topgan daromadning poraga aylangan qismi yashirin ravishda jamg'ariladi. Bugungi kunda korruptsiya muammosining dolzarbligini anglash mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Korruptsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmasligimizni idrok etish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Tizimda olib borilayotgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda kamchiliklar borligi xodimlar o'rtasida korruptsiya jinoyatini sodir etish extimoli borligi xamda xodimlari ko'rsatayotgan xizmatlari talabi darajasida emasligi xodimlarni turli qonun bilan taqiqlangan shaxsiy manfaatini ko'zlovchi xamda xozigi kunda Prezidentimiz tomonidan dolzarb bo'lgan Korruptsiyaga yo'l qo'yish xolatlari uchrayotganligini bir qator misollar bilan izoxlab gapirib o'tdi. SHunigdek xodimlarni xizmat vazifalarida xujjatlar bilan ishlashdagi qator kamchiliklar borligi buni zudlik bilan qonuniy tarzda xal etishlik va bu bilan yuqoridagi tekshiruvga keluvchilarga xujjatlarni to'liq taqdim etilishiga erishilishi markazga kelgan murojaatchilarga bepul xizmatlar ko'rsatilishi bilan ularni rozi qilish masalalrda ish tashkil etilishi o'z navbatida markaz xodimlari o'rtasida do'stona samimiy ish tashkil etilishi borasida topshiriqlarni berib o'tdi.

So'zga chiqqan O'IBDO' A Odilov O'zbekiston Respublikasining «Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni, shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5729-son Farmoni, 2019-2020 yillarda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tasdiqlangan Davlat dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 martdagi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish

«...da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida» farmonida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunining 5-moddasiga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib, har bir davlat boshqaruvi va mahaliy ijro etuvchi hokimiyat organlari o'zining boshqaruv tizimida qonunning 3-bobi «Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish», 4-bobi «Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar» hamda 5-bobi «Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarligi»ni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar olib borishi belgilangan.

Yuqoridagilarga qaramasdan hozirgi kunda ayrim davlat organlarida mavzusi yuzasidan quyidagicha muammolar mavjud: ayrim xodimlarning oylik ish haqining yetarli emasligi; korrupsiya muammosi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarni bilim va ko'nikmalarini yetarli emasligi; davlat organlarida korrupsiogen vaziyatni baholovchi yagona mukammal tahlilni mavjud emasligi; davlat organlarida sohaviy xizmatlarida korrupsiyaga undovchi omillar yetarli tadqiq etilmaganligi; davlat organlari xodimlarida korrupsiyaning oldini olish masalalari bo'yicha bilimlarni kengaytirish va tarqatishda tizimli ishlar choralari samaradorligining pastligi; byurokratik holatlarning saqlanib qolayotganligi; davlat organlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirish borasida tizimli ishlarning yetarli emasligi; davlat organlarida shaffoflikning yetarli emasligi; fuqarolarning muammolariga davlat organlari mas'ul xodimlarning e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lishi, ortiqcha sarson-sargordonlik; davlat organlari ayrim xodimlarida yuridik ma'lumotning yo'qligi.

Ko'rinib turibdiki, korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish. Korrupsiya bozor qoidalariga binoan xizmatlarni ixtiyoriy ravishda oldi-sotdi qilish emas, balki ularni ko'rsatish uchun g'ayriqonuniy haq olishdir. Demak, korrupsiya g'ayriijtimoiy, g'ayriqonuniy xizmat ko'rsatishdir.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida davlat organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurash olib borish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

– kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish ishini samarali yo'lga qo'yish; – rahbariyat tomonidan kadrlar ustidan nazoratni kuchaytirish; – xodimga muntazam davlat xizmatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatib borish; – avallo, sharaf degan nomni tiklash maqsadida vatanparvarlik va xizmat burchiga o'ta sodiq kadrlarni erinmasdan izlab topish. Xodimlarni ishga qabul qilishda batafsil tekshirish tizimini joriy etish, yetarli va asosli sinov muddati belgilash; – davlat organlariga yangi qabul qilinayotgan bo'lg'usi xodimlarning korrupsiyaga yoki oddiy qilib aytganda, pulga moyilligini aniqlash maqsadida mutaxassislar tomonidan mukammal tarzda maxsus psixologik testlarni ishlab chiqish va nomzodlardan mazkur test sinovlarini qabul qilishni amalga oshirish; – xizmat vazifalari taqozosiga ko'ra to'g'ridan to'g'ri aholi bilan muloqotga kirishuvchi xodimlar bilan alohida amaliy misollar keltirilgan videofragmentlar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish; – davlat organlari tizimidagi xizmatlardan eng ko'p poraxo'rlik yoki ta'magirlik kabi qilmishlar sodir etib, jinoiy javobgarlikka tortilgan xodimlarning statistik tahlilini yuritib, ushbu xizmat yo'nalishida ishlovchi xodimlar o'rtasida belgilangan tartibda muntazam ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va uning natijalariga asosan tegishli choralar ko'rish; – korrupsiya hodisasi bilan bog'liq, korrupsiya jinoyati sodir etgan xodimlarning sayyor sud majlislarini real holatini yoritgan, ta'sirchan film, videofragmentlarni ishlab chiqish hajmini oshirish hamda ularni xodimlar bilan ta'sirchan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda foydalanish va korrupsiya jinoyati uchun jazoning muqarrarligi kabi achinarli vaziyatlarni ifodalab berish; – korrupsiya faktlarini fosh etuvchi ma'lumotlar bergan xodimlarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va himoya tizimini yaratish; – halol xizmatni muntazam rag'batlantirish; – xodimlarning ijtimoiy himoyasi hamda oylik maoshlarini bosqichma-bosqich reytingiga qarab oshirish; – korrupsiya jinoyati bo'yicha sudning hukmi kuchga kirgan shaxslarning fotosuratlarini veb-saytlarda va ommaviy axborot vositalarida doimiy ravishda ko'rsatib borish amaliyotini yo'lga qo'yish; – barcha tarkibiy tuzilmalardagi korrupsiyaga chalinishga moyil soha va yo'nalishlarni aniqlash va oldini olish

...morallari samaradorigini oshirish, - xodimlarning malakasini oshirishga e'tiborni  
...chaytirish; - xodimlarning yashash joylaridagi yurish-turishi haqida muntazam xabardor  
bo'lib turish.

Qayd etish joizki, korruptsiyaviy yo'nalishdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish  
umummilliy vazifa. SHuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan davlat  
organlari korruptsiyaga qarshi kurashning asosiy sub'ektlari hisoblanadilar. Bu borada amalga  
oshirilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar fikrimizcha quyidagilardan iborat:

- huquqqa zid maqsadlarni ko'zlaydigan shaxslarning davlat organlariga kirib qolishlarining  
oldini olish;

- davlat organlari xodimlari va ularning yaqinlarini xizmat vazifalarini bajarishlari bilan  
bog'liq holda hayotiga, sog'lig'iga, mulkiga qarshi noqonuniy tajovuzlardan davlat himoyasini  
tashkil etish;

- davlat organlari xodimlari tomonidan jinoyatlar sodir etilishiga yordam beradigan sabablar  
va sharoitlarni aniqlash;

- davlat organlari korruptsiyaning kelib chiqish shart- sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish  
bo'yicha chora tadbirlarni rejalashtirish;

- davlat organlarida nomzodlarni ishga va o'qishga qabul qilishda ularning shaxsiy  
fazilatlarini va maqsadlarini to'liq o'rganish;

- korruptsiyaning oldini olish bo'yicha davlat organlari xodimlari bilan umumiy  
profilaktikani amalga oshirish;

- davlat organlari organlarida ta'magirlikka, molparastlik va pulga moyil bo'lgan shaxslarni  
aniqlash va ular bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirish;

- davlat organlarida korruptsiyaning oldini olishda rahbarlarning rolini oshirish va huquqiy  
ta'lim-tarbiyaning ta'sir choralarni oshirish.

Asaka kasb-xunar markaz MMBDO' A Saloxiddinov o'z so'zlarida Markazda tashkil etilgan  
qisqa muddatli o'quv kurslariga tinglovchilarni jalb qilishda ularga nazariy va amaliy bilim  
ko'nikmalarni berishda,sertifikatlarni taqdim qilish jarayonida bevosita ishtirok etayotgan  
xodimlar turli xil noqonuniy pul mablag'larini talab etmaslik va xar qanday korruptsion  
xolatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha barcha xodimlar ogohlantirildi.

Markaz direktori tomonidan barcha xodimlarga o'z xizmat vazifalarini belgilangan tartibda  
bajarilishi, ish davomida ijro intizomiga rioya etilishi, xodimlarni murojaatchilar bilan ishlashda  
xushmohimlik bo'lishda, korruptsiya jinoyatiga sabab bo'luvchi barcha xolatlardan xoli  
bo'lishlik, (qarindoshchilik, tinish bilishchiliklarni oldini olish) salbiy kamchiliklarga yo'l  
qo'ygan xodimlarga nisbatan belgilangan tartibda jazo muqarrarligini ta'minlashni aytib o'tdi.

### **Kun tartibidagi masalani atroflicha muxokama etib yig'ilish**

#### **QAROR QILADI :**

1. Tizimda jinoyatchilikka qarshi kurashish xamda ularni oldini olish korruptsiyaga yo'l  
qo'ymaslik, tizimda qarindosh urug'chilik orqali jinoyatlarni sodir etilishini oldini olish borasidagi  
yuqoridagi ma'lumotlar va topshiriqlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Markaz direktori o'rinbosarlari A saloxiddinov va A Odilovga barcha xodimlarni kunlik ijro  
intizomi xamda o'z vazifalariga ma'suliyat bilan yondashishligi, monitorin qilish va belgilangan  
tartibda kunlik qilingan ishlarni xisobotini yuritish vazifasi topshirilsin.

3. Markazdagi barcha xodimlarga:

- o'zlariga belgilangan vazifalarni sitqidildan vijdonan bajarilishini ta'mindash  
- xodimlarni ish faoliyatida Korruptsiyaga yetaklovchi qarindosh o'rug'chilik tanish bilshchili kabi  
salbiy illtalar orqali kelib chiqadigon poraxo'rlik va jinoyatlardan saqlanishi qonunda belgilangan  
tartiblar asosida ish tashkil etilishlar

- xar bir kelgan murojaatchiga odob bilan axloq normalari doirasida xizmat ko'rsatish, ularni ortiqcha  
yugurishlarsiz besab ishini berkitmaslik xolatlariga qat'iy chek qo'yish

- xodimlar o'rtasida samimiy ish muxitini yaratgan xolda ish tashkil etish kabi vazifalar yuklatilsin

4. Xodimlar bo'yicha inspektor M Matazovaga

Markazda tashkil etilgan qisqa muddatli o'quv kurslariga tinglovchilarni jalb qilishda ularga nazariy  
va amaliy bilim ko'nikmalarni berishda,sertifikatlarni taqdim qilish jarayonida bevosita ishtirok  
etayotgan xodimlar turli xil noqonuniy pul mablag'larini talab etmaslik va xar qanday korruptsion  
xolatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha barcha xodimlardan kafolat xati olish vazifasi yuklatilsin

5. Ushbu yig'ilish baenini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Bayon tuzuvchi;

Matazova Muxayyo



